Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BOLA - TARBIYAÇI - OTA-ONA: MUVAFFAQIYATLI UÇBURÇAK FORMULASI

Marufjonova Sevara Ilhomjon qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali,
1-kurs magistranti, Namangan, Özbekiston
Email: sevaramarufjonova2000@gmail.com
+998913565628
https://doi.org/10.5281/zenodo.24289915

Annotatsiya. Uşbu maqolada maktabgaça yoşdagi bolaning tarbiyasi va rivojlanişida uç asosiy iştirokçi - bola, tarbiyaçi va ota-onaning özaro hamkorligi «muvaffaqiyatli uçburçak» sifatida körib çiqilgan. Ilmiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar tahlili asosida hamkorlikning hammaga tuşunarli formulasi taklif etilgan: Muvaffaqiyat = Işonç × Muloqot × Izçillik. Har bir tomonning vazifalari, oila va boğçada köp uçraydigan xatolar va ularni tuzatiş yöllari jadvallar orqali tizimlaştirilgan. Natijada tarbiyaçi va ota-onalar har kuni qöllay oladigan amaliy hamkorlik rejasi işlab çiqilgan.
Kalit sözlar: maktabgaça ta'lim, bola, tarbiyaçi, ota-ona, hamkorlik, işonç, muloqot, izçillik, oila va boğça.

РЕБЁНОК - ВОСПИТАТЕЛЬ - РОДИТЕЛИ: ФОРМУЛА УСПЕШНОГО

Аннотация. В статье рассматривается взаимодействие трёх главных участников воспитания и развития ребёнка дошкольного возраста - ребёнка, воспитателя и родителей - как «треугольник успеха». На основе анализа научной литературы и нормативных документов предложена простая и понятная формула сотрудничества: Успех = Доверие × Общение × Последовательность. Роли каждой стороны, типичные ошибки в семье и детском саду, а также способы их исправления систематизированы в таблицах. В результате разработан практический план сотрудничества, который воспитатели и родители могут применять ежедневно.
Ключевые слова: дошкольное образование, ребёнок, воспитатель, родители, сотрудничество, доверие, общение, последовательность.

CHILD - TEACHER - PARENTS: THE FORMULA OF A SUCCESSFUL TRIANGLE

Abstract. The article examines the interaction of the three key participants in the upbringing and development of a preschool child - the child, the teacher and the parents - as a «triangle of success». Based on an analysis of research literature and regulatory documents, a simple formula of partnership is proposed: Success = Trust × Communication × Consistency. The role of each side, common mistakes made at home and in kindergarten, and ways to correct them are systematized in tables. As a result, a day-to-day partnership plan for teachers and parents has been developed.
Keywords: preschool education, child, teacher, parents, partnership, trust, communication, consistency.

KIRIŞ

Bola dunyoga kelganda uning birinçi maktabi - oila, birinçi öqituvçilari esa ota-onasidir. Uç-tört yoşga yetganda bu yölga yana bir muhim manzil qöşiladi - maktabgaça ta'lim taşkiloti, ya'ni boğça. Endi bolaning kuni ikki joyda öta boşlaydi: kunduzi boğçada, keçqurun va dam oliş kunlari uyda. Agar şu ikki joyda bolaga bir xil talab qöyilsa va kattalar bir-biriga işonsa, bola tinç, xotirjam va tez rivojlanadi.

Aksinça, uyda bir gap, boğçada boşqa gap eşitgan bola ikkilanib qoladi: «Qaysi biri töğri?» Natijada injiqlik, qörquv va özboşimçalik paydo böladi.

Mamlakatimizda maktabgaça ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. «Maktabgaça ta'lim va tarbiya töğrisida»gi Qonunda ota-onalarning huquq va majburiyatlari alohida belgilab qöyilgan[1]. Maktabgaça ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasida ham sifatli ta'lim uçun oila bilan hamkorlikni kuçaytiriş muhimligi ta'kidlangan[2]. Bu fikr milliy pedagogikamizda ham azaldan bor: Abdulla Avloniy tarbiyani xalq uçun «yo hayot - yo mamot» masalasi deb atagan[3].

Xorijiy tadqiqotlarda ham oila va ta'lim muassasasi hamkorligi keng örganilgan. U. Bronfenbrenner bolaga eng yaqin muhitlar özaro qançalik yaxşi boğlansa, bola şunçalik yaxşi rivojlanişini asoslab bergan[4]. J. Epşteyn hamkorlikning olti turini ajratgan[5], A. Henderson va K. Mapp esa oilaning faol iştiroki bolaning ta'limdagi yutuqlariga ijobiy ta'sir qilişini köplab tadqiqotlar asosida körsatgan[6].

Biroq bu nazariyalar köpinça murakkab ilmiy tilda bayon qilingan va oddiy tarbiyaçi yoki ota-ona uçun amaliy qöllanmaga aylanmagan. Ota-onalar va tarbiyaçilar uçun sodda, eslab qoliş oson va har kuni qöllaş mumkin bölgan hamkorlik modeli yetişmaydi. Aynan şu böşliq uşbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - bola, tarbiyaçi va ota-ona özaro qanday boğlanişi kerakligini oddiy tilda tuşuntiriş va hamkorlikning amaliy formulasini işlab çiqiş. **Vazifalari:** uçburçak har bir tomonining vazifasini aniqlaş; hamkorlik muvaffaqiyatini belgilovçi asosiy elementlarni ajratiş; tipik xatolarni tizimlaştiriş; amaliy hamkorlik rejasini taklif qiliş.

NAZARIY ASOS VA METODLAR

Tadqiqot nazariy xarakterga ega. Uning nazariy asosini Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi, Epşteynning «oila - ta'lim muassasasi - jamiyat» hamkorligi modeli, L. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi[7] hamda A. Avloniy va V. Suxomlinskiy qaraşlari taşkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qöllanildi: (1) ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qiliş; (2) Özbekistonning maktabgaça ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarini qiyosiy örganiş; (3) maktabgaça ta'lim taşkilotlari amaliyotini umumlaştiriş; (4) olingan ma'lumotlarni jadvallar şaklida tizimlaştiriş va modellaştiriş. Hamkorlik elementlarini ajratişda har bir manbada eng köp takrorlangan omillar tanlab olindi va ular bitta formulaga birlaştirildi.

---

[1]Özbekiston Respublikasining «Maktabgaça ta'lim va tarbiya töğrisida»gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, ÖRQ-595-son. https://lex.uz

[2]Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «Özbekiston Respublikasi maktabgaça ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida»gi PQ-4312-son qarori.

[3]Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toşkent, 1913.

[4]Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

[5]Epstein J. L. et al. School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action. 4th ed. - Thousand Oaks, CA: Corwin, 2019.

[6]Henderson A. T., Mapp K. L. A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. - Austin, TX: SEDL, 2002.

[7]Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

NATIJALAR

1. Uçburçakning uç tomoni.

Uçburçak - geometriyadagi eng mustahkam şakl: bitta tomonini olib taşlasangiz, u uçburçak bölmay qoladi. Tarbiyada ham xuddi şunday. **Bola** - uçburçakning markazi, passiv kuzatuvçi emas, balki faol iştirokçi. **Tarbiyaçi** - kasb egasi; u bolani tengdoşlari orasida köradi va uyda körinmaydigan köp narsani sezadi. **Ota-ona** - birinçi va asosiy tarbiyaçi; bolaning fe'l-atvori, soğliği va qörquvlarini hammadan yaxşi biladi. Tomonlarning vazifalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Uçburçak tomonlarining vazifalari[8]

Iştirokçi	Asosiy vazifasi	Uçburçakka qöşadigan hissasi	Oddiy misol
Bola	Öynaş, örganiş, özini ifoda qiliş	His-tuyğulari va ehtiyojlari haqida signal beradi	«Men qörqdim», «Menga yoqdi»
Tarbiyaçi	Bilimni yoşiga mos beriş, kuzatiş	Bolaning jamoadagi holati haqida ma'lumot	«Bugun Ali birinçi marta özi kiyindi»
Ota-ona	Mehr, xavfsizlik, uyda davom ettiriş	Bolaning uydagi holati, soğliği haqida ma'lumot	«Keça uxlamadi, tez çarçaşi mumkin»

2. Muvaffaqiyat formulasi.

Adabiyotlar tahlili natijasida uç tomonni boğlab turgan riştaning uçta asosiy elementi ajratildi. Ular quyidagi formula bilan ifodalandi:

Muvaffaqiyat = Işonç × Muloqot × Izçillik

Formulada qöşuv emas, aynan köpaytiruv belgisi işlatilgan. Çunki köpaytirişda bitta son nol bölsa, butun natija nolga teng böladi. Tarbiyaçi juda yaxşi mutaxassis bölsa-yu, ota-ona unga işonmasa, natija bölmaydi. Ota-ona va tarbiyaçi bir-birini hurmat qilsa-yu, hiç gaplaşmasa, yana natija yöq. **Işonç** - hamkorlikning poydevori; u va'dani bajariş, oçiqlik va hurmat orqali sekin-asta quriladi. **Muloqot** - ikki tomonlama gaplaşiş; ertalab va keçqurun 1-2 daqiqalik qisqa suhbat ham katta kuç. **Izçillik** - uyda va boğçada bir xil qoida. Elementlarning amaldagi körinişi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Formula elementlarining amaldagi körinişi[9]

Element	Tarbiyaçi nima qiladi	Ota-ona nima qiladi
Işonç	Va'dasini bajaradi; bola haqidagi gapni boşqalar oldida gapirmaydi	Tarbiyaçini bola oldida tanqid qilmaydi; muammoni yuzma-yuz hal qiladi
Muloqot	Har kuni kamida bitta yaxşi yangilik aytadi; muammoni yeçim bilan taklif qiladi	Bolaning kayfiyati, soğliği, uydagi özgarişlar haqida vaqtida xabar beradi
Izçillik	Kun tartibi va qoidalarni ota-onaga oldindan tuşuntiradi	Uyda ham şu qoidalarni davom ettiradi: uyqu, ovqat, özi kiyiniş, ekran vaqti

[8] Muallif tomonidan tuzilgan

[9] Muallif tomonidan tuzilgan

3. Tipik xatolar va ularning yeçimi.

Amaliyotni umumlaştiriş natijasida uçburçakni buzadigan eng köp uçraydigan xatolar aniqlandi. Ular köpinça yaxşi niyat bilan qilinadi (3-jadval).

3-jadval

Tipik xatolar va töğri yöl[10]

Xato	Nima uçun zararli	Töğri yöl
Bola oldida tarbiyaçini yoki ota-onani tanqid qiliş	Bola kattalarga işonçini yöqotadi	Kelişmovçilikni bolasiz, xotirjam hal qiliş
Ota-onaga faqat muammo haqida gapiriş	Ota-ona himoyaga ötadi, muloqot uziladi	Avval yutuq, keyin muammo va yeçim
«Hammasini boğça örgatsin» deb qarab turiş	Örganilgan narsa uyda mustahkamlanmaydi	Uyda kuniga 15 daqiqa birga öyin, ertak, suhbat
Uy va boğça qoidalari bir-biriga zid	Bola ikkilanadi, injiqlik kuçayadi	Bir neçta oddiy umumiy qoida kelişib oliş
Bolani boşqalar bilan soliştiriş	Bola özini past baholay boşlaydi	Bolani faqat özining keçagi holati bilan soliştiriş

4. Amaliy hamkorlik rejasi.

Formula qoğozda qolmasligi uçun u oddiy reja şakliga keltirildi (4-jadval). Reja hiç qanday qöşimça xarajat talab qilmaydi.

4-jadval

Hamkorlikning amaliy taqvimi[11]

Qaçon	Nima qilinadi	Kim boşlaydi
Har kuni ertalab (1-2 daqiqa)	Bolaning kayfiyati va soğliği haqida qisqa xabar	Ota-ona
Har kuni keçqurun (1-2 daqiqa)	Kunning bitta yaxşi yangiligi	Tarbiyaçi
Haftada bir marta	«Haftaning yutuği»: guruh çatida qisqa xabar (ota-ona roziligi bilan)	Tarbiyaçi
Oyda bir marta	Ota-onalar bilan birga ustaxona, ertak kuni yoki sport bayrami	Tarbiyaçi va ota-onalar
Çorakda bir marta	Individual suhbat: bolaning yutuqlari va keyingi maqsadlar	Tarbiyaçi
Yilda ikki marta	Oçiq eşiklar kuni va ota-onalar majlisi	Boğça rahbariyati

[10] Muallif tomonidan tuzilgan

[11] Muallif tomonidan tuzilgan

MUNOZARA

Olingan natijalar tadqiqot boşida qöyilgan maqsadga - murakkab nazariyalarni oddiy va amaliy modelga aylantirişga javob beradi. «Uçburçak» obrazi Bronfenbrenner ta'kidlagan muhitlar özaro boğliqligini kündalik tilga ötkazadi, formula elementlari esa Epşteyn modelidagi muloqot va uyda öqitiş turlariga mos keladi. Izçillik elementi Vigotskiyning bola yangi könikmani kattalarning doimiy va bir xil yordami bilan egallaşi haqidagi xulosasi bilan tasdiqlanadi. Garvard universitetining Bola rivojlaniş markazi ham bola bilan doimiy, iliq «savol-javob» muloqoti miya rivojlanişiga bevosita ta'sir qilişini qayd etadi[12].

Formulaning amaldagi işini quyidagi şartli misol körsatadi. Tört yoşli Madina boğçada tez-tez yiğlay boşladi. Tarbiyaçi onasi bilan xotirjam suhbat qildi: avval Madinaning rasm çiziştagi yutuğini aytdi, keyin muammoni tuşuntirdi (muloqot). Ona oilada yaqinda çaqaloq tuğilganini aytdi va tarbiyaçi bu ma'lumotni hiç kimga aytmadi (işonç). Ular kelişib, uyda ham, boğçada ham Madinaga kuniga bir marta «katta opaning vazifasi» berişdi (izçillik). Uç haftadan söng qizning kayfiyati sezilarli yaxşilandi.

Taklif etilgan modelning özbek pedagogikasi an'analari bilan uyğunligi ham muhim. V. Suxomlinskiy pedagog bolaga haqiqiy baxtni faqat ota-onalar bilan birgalikda bera olişini ta'kidlagan[13]; bu fikr Avloniyning tarbiya umumxalq işi ekanligi haqidagi qaraşi bilan hamohang.

XULOSA

Bola, tarbiyaçi va ota-ona - bir-birisiz işlay olmaydigan uç tomon. Ularni boğlab turgan rişta uç oddiy elementdan iborat: işonç, muloqot va izçillik. Ulardan birortasi yöq bölsa, eng yaxşi dastur ham kutilgan natijani bermaydi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. **Tarbiyaçilarga:** har kuni ota-onaga kamida bitta yaxşi yangilik aytiş, muammoni doim yeçim bilan birga taklif qiliş.
2. **Ota-onalarga:** bolaning holatidagi özgarişlar haqida vaqtida xabar beriş, bola oldida tarbiyaçi haqida faqat hurmat bilan gapiriş, boğçada örganilganni uyda kuniga 15 daqiqa davom ettiriş.
3. **Boğça rahbariyatiga:** tarbiyaçilarni ota-onalar bilan muloqot könikmasiga örgatiş va 4-jadvaldagi hamkorlik rejasini guruhlarning yillik işiga kiritiş.

Muvaffaqiyatli uçburçakni qurişning siri murakkab emas: u bir iliq söz, bir qisqa suhbat va bir xil qoidadan boşlanadi. Kattalar bir-biriga işonsa, gaplaşsa va bir yöldan yursa, bola ham dunyoga işonç bilan qaraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Özbekiston Respublikasining «Maktabgaça ta'lim va tarbiya töğrisida»gi Qonuni. 16.12.2019, ÖRQ-595-son. - https://lex.uz
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori.
3. «Ilk qadam» maktabgaça ta'lim taşkilotining davlat öquv dasturi. - Toşkent, 2022.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toşkent: Öqituvçi, 1992.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

[12]Center on the Developing Child at Harvard University. Serve and Return. - https://developingchild.harvard.edu

[13]Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. - Киев: Радянська школа, 1969.

6. Epstein J. L. et al. School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action. 4th ed. - Thousand Oaks, CA: Corwin, 2019.
7. Henderson A. T., Mapp K. L. A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. - Austin, TX: SEDL, 2002.
8. Desforges C., Abouchaar A. The Impact of Parental Involvement, Parental Support and Family Education on Pupil Achievement and Adjustment. - London: DfES, Research Report 433, 2003.
9. Shonkoff J. P., Phillips D. A. (eds.). From Neurons to Neighborhoods: The Science of Early Childhood Development. - Washington, DC: National Academy Press, 2000.
10. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
11. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. - Киев: Радянська школа, 1969.
12. Center on the Developing Child at Harvard University. Serve and Return. - https://developingchild.harvard.edu